

О'ZBEK VA RUS BUYUK YOZUVCHISI ALEKSANDR AKRADVICH FAYNBERG IJODING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI VA ROLI

Najmiddinova Shahinabonu Nutfullo qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va rus yozuvchisi, betakror va unitilmas asarlar muallifi Aleksandr Faynberg yorqin xotirasi, hayot yo'li va ijodi, jumladan, buyuk yozuvchi qoldirgan merosining bugungi kundagi ahamiyati va o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Aleksandr Faynberg, shoir, madaniy meros, qardosh xalqlar hamdo'stligi, Vatan muhabbati, sevimli yozuvchi, o'chmas xotira, milliylik.

KIRISH

Adabiyot – shunday bir bog'ki, u bog'da bir-birini takrorlamaydigan, hech qachon yoddan chiqmas go'zal gullar ko'p, nihollar ko'p. Ana shunday takrorlanmaydigan, unitilmas, insoniyat qalbidan o'z ijodi ya'ni she'rlari, tarjimalari va yana beqiyos mehnati bilan joy olgan buyuk o'zbek va rus yozuvchisi Aleksandr Faynbergdir. Shoir o'z she'rlari orqali qablarni tubida saqlanib qolgan tuyg'ularni larzaga keltirdi va kitobxonlarni sevimli yozuvchisiga aylandi.

Taniqli o'zbek shoiri Abdulla Oripov: “Aleksandr Faynbergning ijodiga kelsak, barcha baland so'zlar haqiqatning yuzdan bir qismini ham aks ettirmaydi, chunki u aslida noyob shoir va tarjimon edi. Jahon darajasidagi yozuvchi, ... rus tilida so'zlashadigan yozuvchilardan hech biri uningchalik bizning quyoshli diyorumizga samimiy qo'shiq kuylashi mumkin emas”, -deb ta'riflagan edi.

Aleksandr Arkadevich Faynberg 1939-yil 2-noyabr Toshkentning Jukovskiy mahallasida tug'ilgan. Uning bolaligi shu ko'chada o'tgan. Yetti yillik maktabni tamomlagach, yozuvchi Toshkent topografik texnikumiga o'qishga kiradi. Texnikumni tugatgach, Tojikistonga harbiy xizmatga ketadi. 1961-yil I.N.Koval bilan turmush quradi.

Buyuk qardosh xalqlar hamdo'stligini yanada mustahkamlagan betakror yozuvchi keyinchalik Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlab, shu qatorda Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo'lgan va ayni shu damdan boshlab uning asarlari dunyo yuzini ko'ra boshladi.

U o'n beshta she'riy to'plamlar, xususan, “Etyud” (1967), “Soniya” (1969), “She'rlar” (1977), “Olisko'priklar” (1978), “Ijobat” (1982), “Qisqato'lqin” (1983) va boshqa she'riy to'plamlar muallifi sanaladi. Shuningdek, uning senariylari asosida “O'zbek film” kino studiyasida “Mening akam”, “Jazirama oftob tagida”, “Qandahorda toblanganlar”, “Tojik film” kinostudiyasida “Jinoyatchi va oqlovchilar”

nomli metrajli badiiy filmlar va yigirmadan ortiq multi plitkasion filmlar suratga olingan. Uning Vatan muhabbati bilan sug'orilgan asar va she'rlari AQSH, Kanada va Isroil kabi xorijiy mamlakatlarining vaqtli matbuotlarida chop etilib, kitobxon muxlislari orasida sevib mutolaa qilindi. Shu jumladan, Aleksandr Faynberg madaniy me'rosi hisoblanmish she'rlari "Smena", "Yoshlik", "Yangidunyo", "Sharq yulduzi" kabi ko'plab jurnal va gazetalarda chop etildi.

Aleksandr Faynberg millat manfaati, uning rivoji uchun xizmat qilganini teran mazmun bilan boyitilgan ijodidan ko'rishimiz mumkin. Shunday og'ir davrda O'zbekistonning, o'zbek xalqining matonati va mehribonligini takror-takror madh etadi. U paytda hamma o'z jonini qutqarishni o'ylar, lekin odamgarchiligi baland o'zbeklar boshiga musibat tushgan millatlarni o'z bag'riga olib, boshini silaganini she'rlarida cheksiz minnadorlik tuyg'usini qaynoq mehr bilan e'tirof etdi. O'zining yeb turgan nonini boshqalar bilan baham ko'rgan, madadga muhtojlarning jonini saqlab qolgan millatga boshi yerga tekkudek tazim qilib, rahmat aytdi.

Buyuk yozuvchi badiiy tarjima orqali juda mashhur hisoblanadi. U rusiy zabon kitobxonlarga ko'plab o'zbek shoirlarining kitoblarini tarjima qilib beradi. Taniqli shoirning o'zbek tiliga o'girilgan she'rlari "Chig'ir" kitobida o'quvchilar qo'liga yetib keldi. Faynberg ijodining muhim qismini badiiy tarjimalar tashkil qiladi. O'zbek she'riyatining mashhur qalam sohiblari hisoblanmish Alisher Navoiy g'azallari, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon va boshqa o'zbek shoirlarining she'r va dostonlarini rus tiliga tarjima qildi. Toshkentda Abdulla Oripov, Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Said, Omon Matjon she'rlari jamlangan "Oq qushlar galasi" to'plami nashrdan chiqariladi. Shuni ta'kidlash lozimki, Aleksandr Faynberg tarjimalarining eng muhim va ahamiyatli tomoni-unda doimo milliylik saqlanib qolingan.

Faynbergning lirik qahramoni tarixiy ijtimoiy silsilar asrida o'zining insoniy mohiyati va xususiyatlari, o'zgaga mehr, shavqat va madad qo'lini uzatishga tayyor bo'lgan insoniy sifatlarni mahorat bilan tasvirlab bergan. U 2009-yil 14-oktabrda Toshkent shahrida vafot etdi va u Toshkentdagi Botkin qabriston bo'limiga dafn etilgan.

Faynbergning ko'p millatli o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi hukumat tomonidan munosib baholandi." O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi", "O'zbekiston xalq shoiri" faxriy unvonlari bilan taqdirlangani ham bu ulug' zotga bo'lgan cheksiz hurmatimizdan dalolatdir. Kinematografiya agentligi buyurtmasiga ko'ra, "Hujjatli va xronikal" hujjatli filmlar studiyasi shoir Aleksandr Faynbergning yorqin xotirasiga bag'ishlab hujjatli film suratga oladi. Ushbu filmda shoir hayoti va ijodi yoritilgan. O'zbekiston xalq shoiri, Kinematografiya uyushmasi a'zosi Aleksandr Faynberg Rossiya prezidenti tomonidan O'zbekiston o'rtasidagi madaniy aloqalarga munosib hissa qo'shganligi uchun Pushkin medali bilan taqdirlandi. Prezidentimizning tashabbusi bilan yangidan bunyod etilgan adiblar

xiyobonida mumtoz va zamonaviy adiblarning ulug' namayondalari qatorida Aleksandr Faynberg haykali ham qad rosladi. 2019-yil 2-noyabrda shoirning sakson yilligi munosabati bilan tadbir o'tkazildi.

XULOSA

Darhaqiqat, buyuk ijodkor bundanda ko'p sevgi va minnatdorchilikka to'la loyiq edi. Negaki, yozuvchi yorqin, o'ziga xos poetik iste'dod sohibidir. Uning asarlari bir necha o'n yillardan buyon O'zbekiston shoirlari uchun badiiylik o'lchovi bo'lib qolmoqda. Uning Vatan muhabbati bilan sug'orilgan asarlari sermazmun va qalblarni tub-tubigacha yetib borishi va o'zbek xalqining mehr-oqibat va saxovatligini keng yoritganligi bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadi. Shoir o'zidan o'chmas va tuganmas asarlarini meros qilib qoldirdi. Qardosh xalqlar sevimli yozuvchisi Aleksandr Faynbergning mumtoz she'riyatining eng yaxshi an'analari va O'zbekiston zaminiga mehr-muhabbat tuyg'ulari singdirilgan xotiradan o'chmas va noyob asarlari adabiyotimiz tarixida alohida va unutilmas sahifaga ega. Aleksandr Faynbergning tilidan va millatidan qat'I nazar O'zbekistondagi barcha adabiyot ixlosmatlari uning o'chmas xotirasini hurmat qilishadi va madaniy merosini har qaysi zamonda ham sevib mutolaa qilishadi. Bir so'z bilan aytganda, buyuk shoir muxlislari qalbida mangu yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://n.ziyouz.com>
2. <https://ilmlar.uz>
3. Alexander Fainberg — An Attempt to Autobiography
4. Mikhail Knizhnik — Living Poet | Published in The Jerusalem Journal. Number 31, 2009
5. Elena Atlanova: Alexander — Feinberg's Cage of Freedom
6. Alexander Fitz — About the poet Feinberg | Published in Khreshchatyk magazine number 4, 2005
7. "Literature and Art of Uzbekistan" newspaper, Number 24, 2009
8. Musurmonov R. "The Alley of Writers - the Garden of Enlightenment". — T.: Uzbek literature and art, June 19, 2020.
9. Alexander Feinberg. Chigir. T.: Sharq, 2007.